

## BOLALAR VOKAL ANSAMBILLARINI TASHKIL ETISH

*Savapov Rashid Irkinovich*

*Jizzax Davlat Pedagogika Instituti*

*Musiqa va san'at yo'nalishi 1-kurs magistranti*

+998932990505

+998996270714

**Annotatsiya.** ushbu maqoladan shularni shularni bilib olish mumkinki, bunda hozirgi kunda mamlakatimizda rivojlanayotgan vokal musiqasi va uni bolalar qay tarzda kuylashi, shuningdek vokal ansamblarini tashkil etishi hamda bir necha uslublari qolaversa, vokal ansamblarida buzilish holatlari ro'y berishi haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** *vokal musiqasi, vokal ansamбли, uslubiyati, vokal ansamбли buzilish holatlari.*

**Аннотация.** В статье рассказывается о развитии вокальной музыки в нашей стране и о том, как ее поют дети, а также о формировании вокальных ансамблей, а также о том, что в некоторых стилях в вокальных ансамблях наблюдаются нарушения.

**Ключевые слова:** *вокальная музыка, вокальный ансамбль, методика, нарушения вокального ансамбля.*

**Annotation.** This article discusses the development of vocal music in our country and how children sing it, as well as the formation of vocal ensembles, as well as the fact that vocal ensembles are often disrupted.

**Key words:** *vocal music, vocal ensemble, methodology, vocal ensemble disorders.*

Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, hozirda yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilgan shuningdek, musiqa san'atida ham bunda, bizlar

bolalarning vokal ansamblarini tashkil etishi, kuylashi hamda ovozlarini shu vokalga to‘g‘irlashi va shu kabi boshqa hodisalarni ham ko‘rib o‘tamiz. Yurtimizda rivojlanayotgan vokal musiqasi juda ham tez sur’atlarda o‘smoqda shuningdek, hozirda ko‘pchilik xonandalar va bo‘lajak xonandalar ushbu yo‘nalishda o‘zlarini sinab ham ko‘rishmoqda.

Vokal musiqasi – kuylash uchun mo‘ljallangan musiqa. Vokal musiqalar yakka, ansambl hamda xor tarzida, shuningdek musiqa cholg‘ulari jo‘rligida yoki umuman jo‘rsiz (masalan; katta ashula, akapella xorlari kabi) ijro etiladigan asarlar kiradi. Barcha turlarida xonanda ovozi yetakchi o‘rin turadi. Vokal musiqalar, asosan, badiiy matn (she’riyat) bilan bog‘liq. Shu bilan birga so‘zsiz ijro etiladigan vokaliz ham vokal musiqadir. [1]

Bolalarning ovozini voyaga etkazish uchun tayyorgarlik ko‘nikmalarini hosil etish faqat qo‘shiqlar bilangina emas, balki maxsus mashqlar orqali ham amalga oshiriladi. Pedagogik tajribada vokal ansambl mashqlari xonandalarning ashula aytish mahoratlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu mashqlar ansambl rahbari tomonidan uzluksiz ravishda o‘tkaziladi. Ushbu bolalar vokal ansamblarini tashkil etishda bizlar asosan bolalarning ovozini shu kabi notalarga tushishi yoki bo‘lmasa xor jo‘rligida ijro etishi va ularning ovozlarini to‘g‘irlashi kabi usullari bordir. Bolalar vokalida asosan ko‘proq mashg‘ulotlar o‘tkazish kerak, chunki qanchalik ko‘p mashg‘ulotlar o‘tkazsa, ularning ovozi juda ham shirador hamda kuylashi ravon bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlarni o‘tkazish vaqtি rahbarning o‘zi tomonidan belgilanadi. Bunday vokal ansambl uyushmasi ijrochilik mahorati, uning tayyorgarligi hamda vokal texnik darajasini qay holatda ekanligi muhim bo‘lib, mashqlar 10-15 daqiqadan to 30-40 daqiqagacha davom etadi. Mashqlar turli maqsadlarni ko‘zlaydi: ovozni shakllantirish, diapazon (ovoz Hajmi)ni kengaytirish, nafas olish yo‘llarini to‘g‘rilash, sof talaffuz, ovoz registrlari chegarasini tekislash, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalar. Bu mashqlar xonandalarning ijroda vokal–texnik usullarini o‘zlashtirib olishga yordam beradi. Odatda, mashg‘ulotlar oddiy mashqlardan boshlanadi. Ijro

etiladigan mashqlar diapazoni tertsiya, kvarta yoki kvinta intervallar doirasida qulay tessitura, o‘rtacha tezlik va dinamik tuslarda *mf* ijro etiladi. Shu yo‘sinda vokal texnik mashqlar murakkablashib, bir ovozli mashqlardan ikki ovozlikka, so‘ngra polifonik va gomofonik ulubida yozilgan mashqlarga o‘tiladi. Mashqlarni vokal-ansambl registrining o‘rta tovushlaridan boshlash tavsiya etiladi. Bunda ijro mayin, yengil, nafas olish yo‘llari esa erkin holda bo‘lishi kerak. Mashg‘ulot davomida xonandalarning yoki bolalar ovozlari yo‘llari bilan eshitish qobiliyatini rivojlantirishga ahamiyat berish kerak. Agar ijroda ohangdorlik buzilsa, u holda rahbar buning sababini aniqlashi lozim. Bu nuqsonni bartaraf etish uchun rahbar sof tovush taratadigan joylarni past tovush bilan qulay registrda, ba’zan so‘zsiz ijro ettirishi lozim. Xonandalarda sof tovush taratish qoidalari quyidagi holatlarda buziladi;

- a) xonandalar tovushlarning baland-pastligini ilg‘ab ololmaganda;
- b) xonandalar nafas olish qoidalariga rioya qilmaganlaridan
- c) xonandalarning eshitish qobiliyatları yaxshi rivojlanmagan bo‘lsa;
- d) xonandalarning tovush chiqarish yo‘llari xastalanganda va charchagan holatida.

Bunday holatlarda xonanda bilan 10-15 daqiqa yakka tarzda mashg‘ulot o‘tkazilsa ijobiy natijaga erishish mumkin.[2] Bu mashg‘ulotlarning uslubiyati quyidagi ishlardan iborat: Birinchi navbatda xonanda ovozining diapazonida sof ijro etadigan tovushlarning aniqlash kerak. Asta-sekin sof musiqiy talaffuzdagi tovushlarga yonidagi tovushlar qo‘shiladi. Bola ularning to‘g‘ri eshitish hamda uni ovozi bilan aniq takrorlab bayon qilishi va shu tonlarga tushishi, ovoz yetishi kerakdir. Shu yo‘sinda uning tovush diapazoni kengayadi va sof kuylash ko‘nikmalari hosil bo‘ladi. Musiqiy talaffuzning sofligi registr qulayligiga ham bog‘liq: yuqori registrda o‘rta registrga ko‘ra tovushlarni musiqiy talaffuz etish ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababli yuqori registrdagи murakkab joylarni mashg‘ulot davomida bir oktava past ijro etib musiqiy talaffuz sofligiga erishish mumkin. Odatda, vokal ansambl mashg‘ulotlarida ansambl asarlari, shuningdek,

ushbu dasturdagi musiqa asarlaridan foydalanilgan holda o‘qitiladi va kuylaydi. Bu kabi asarlar bizning she’riyatimizda juda ham ko‘pdir.

Ushbu maqoladan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, avvalo bizlar vokal musiqa degan so‘zni o‘zini anglab yetishimiz lozimdir. Vokal musiqalar asosan yakka yoki xor tarzda aytildi. Shu kabi bunda bolalarning ovozini vokalga to‘g‘irlashi ularni sof eshitish, kuylash va boshqalardir. Vokzalda asosan musiqiy talaffuzning sofligiga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Ushbu yo‘nalishda qanchalik ko‘p mashg‘ulotlar o‘tkazsa, ularning ovozi sof, tiniq va to‘g‘ri chiqadi va tinglovchiga xush keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Muzafarova S.X “Vokal ansamбли” o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2015
2. Sodiqov O. Vokal ansamбли. O‘quv qo‘llanma -Musiqa, T. 2005 y.
3. [www.uz.m.wikipedia.org](http://www.uz.m.wikipedia.org)
4. [www.hozirgi.org](http://www.hozirgi.org)
5. [www.faylllar.org](http://www.faylllar.org)